

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN
ONA VA BOLA SALOMATLIGI ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**“TUG‘RUQDA ORALIQNING YIRTIISHI
VA BOSHQA AKUSHERLIK JAROHATLARI
(AKUSHERLIK TRAVMATIZMI)”
MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

TOSHKENT – 2025

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vaziri

_____ **A.A. Xudayarov**

“ _____ ” _____ **2025-yil**

**“TUG‘RUQDA ORALIQNING YIRTIILISHI
VA BOSHQA AKUSHERLIK JAROHATLARI
(AKUSHERLIK TRAVMATIZMI)”
MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

TOSHKENT – 2025



“KELISHILGAN”

RIOvaBSIATM

direktori

N.S. Nadirxanova

2025-yil “

”

**“TUG‘RUQDA ORALIQNING YIRILISHI
VA BOSHQA AKUSHERLIK JAROHLARI
(AKUSHERLIK TRAVMATIZMI)”
MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

TOSHKENT – 2025

Qisqartmalar ro'yxati

| | | |
|-----|---|----------------------------|
| TT | – | tabiiy tug'ruq |
| KK | – | kesarcha kesish |
| MOT | – | muddatidan oldingi tug'ruq |
| UTT | – | ultratovush tekshiruvi |

KIRISH

Klinik protokolning maqsadi: tugʻruq paytida akusherlik jarohatlarini tashxislash va davolash boʻyicha yagona yondashuv uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar berish. Protokol asoratlar xavfini kamaytirishga, ushbu patologiyali bemorlarni davolash natijalarini yaxshilashga qaratilgan.

Bemorlar toifalari: akusherlik jarohatlari: vulva, qin, bachadon boʻyni, bachadon yirtilishi, tugʻruq yoʻllarining yumshoq toʻqimalari gematomalari, bachadonning agʻdarilishi, qov birikmasining yirtilishi rivojlangan ayollar.

Klinik protokol foydalanuvchilari: akusher-ginekologlar, jarrohlar, oilaviy shifokorlar, klinik farmakologlar, shifokor-laborantlar, sogʻliqni saqlash tashkilotchilari, tibbiyot oliy oʻquv yurtlari talabalari, klinik ordinatorlar, magistrantlar, aspirantlar va oʻqituvchilari, akusherlik jarohati mavjud ayollar, ularning oila aʼzolari va parvarish qiluvchi shaxslar.

Klinik protokolning tavsiyalariga rioya qilish:

Klinik protokolda nashr etish paytida mavjud boʻlgan dalillarga asoslangan umumiy tavsiyalar keltirilgan.

Agar amaliy faoliyatda ushbu protokol tavsiyalaridan chetga chiqishga qaror qilinsa, shifokor-klinitsistlar bemorning kasallik tarixi yoki ambulator kartasida quyidagi maʼlumotlarni qayd etishlari shart:

- bunday qarorni kim qabul qilganligi;
- protokoldan chetga chiqish qarorining batafsil asoslanishi;
- bemorni davolash boʻyicha qanday tavsiyalar qabul qilinganligi.

Tavsiyalar klinik amaliyotning barcha jihatlarini qamrab olmaydi. Bu shuni anglatadiki, shifokorlar bemorlar bilan individual davolash taktikasini muhokama qilishlari, bemorning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, hurmatli va maxfiy muloqot tamoyiliga rioya qilishlari lozim.

Bunga quyidagilar kiradi:

- zarurat tugʻilganda tarjimon xizmatidan foydalanish;
- bemorga maslahat berish va har qanday muolaja yoki davolash usuli uchun xabardor qilingan rozilikni olish;
- qonunchilik talablari doirasida parvarishlash va kasbiy xulq-atvor meʼyorlariga rioya etilishini taʼminlash;
- umumiy va mahalliy talablarga muvofiq har qanday davolash va parvarish taktikasini hujjatlashtirish.

Klinik protokol ishlab chiqilgan va qayta koʻrib chiqilgan sana: 2025-yil, qayta koʻrib chiqish sanasi 2030-yil yoki yangi muhim dalillar paydo boʻlganda. Taqdim etilgan tavsiyalarga kiritilgan barcha oʻzgartirishlar tegishli hujjatlarda eʼlon qilinadi.

Klinik protokolni ishlab chiqish uchun masʼul muassasa: Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

Ishchi guruh rahbarlari

| T/r | F.I.Sh. | Lavozimi | Ish joyi |
|-----|------------------|---|-------------|
| 1 | Nadixanova N.S. | direktor, t.f.d. | RIOvaBSIATM |
| 2 | Abdullayeva L.M. | OʻzR SSV bosh akusher-ginekologi, t.f.d., professor | TDTU |

Mualliflar

| T/r | F.I.Sh. | Lavozimi | Ish joyi |
|-----|------------------|---------------------------|--|
| 1 | Yusupov U.Yu. | akusher-ginekolog, t.f.d. | RIOvaBSIATM |
| 2 | Nishanova F.P. | akusher-ginekolog, t.f.n. | RIOvaBSIATM |
| 3 | Mikirtichev K.D. | akusher-ginekolog, t.f.n. | RIOvaBSIATM |
| 4 | Karimova L.A. | akusher-ginekolog | RIOvaBSIATM |
| 5 | Zarefova D.I. | akusher-ginekolog | RIOvaBSIATM |
| 6 | Nurova A.A. | akusher-ginekolog | RIOvaBSIATM |
| 7 | Shukurova M.R. | akusher-ginekolog | RIOvaBSIATM |
| 8 | Usmonov S.K. | akusher-ginekolog | “Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi” loyiha ofisi bosh mutaxassisi |

Taqrizchilar

| T/r | F.I.Sh. | Lavozimi | Ish joyi |
|-----|-----------------|---|--|
| 1 | Yusupbayev R.B. | t.f.d., professor, fetal tibbiyot bo‘limi boshlig‘i | RIOvaBSIATM |
| 2 | Karimova F.D. | t.f.d., professor, kafedra mudiri | TXKMRM, 2-sonli akusherlik va ginekologiya kafedrasini |

RIOvaBSIATM – Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

TDTU – Toshkent davlat tibbiyot universiteti

TXKMRM – Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi

Klinik protokol norasmiy konsensusga erishish yo‘li bilan muhokama qilinib, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, O‘zbekiston akusher-ginekologlar uyushmasi a‘zolari, sog‘liqni saqlash tashkilotchilari (“RIOvaBSIATM” DM filiallari direktorlari va ularning o‘rinbosarlari), tug‘ruq tizimining hududiy muassasalari shifokorlari ishtirokida ishchi guruhning yakuniy yig‘ilishida tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Yig‘ilish 2025-yil 14-mart kuni onlayn shaklda o‘tkazildi, 3-sonli bayonnoma.

Ishchi guruh rahbari – t.f.d. Nadirxanova N.S., “RIOvaBSIATM” DM direktori.

Klinik protokol Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Ilmiy kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi: “27” mart 2025-yil, 4-sonli bayonnoma.

Ilmiy kengash raisi – t.f.d., professor Asatova M.M.

Tashqi ekspert baho

| T/r | F.I.Sh. | Lavozimi | Ish joyi |
|-----|-------------------|-----------------------------------|--|
| 1. | Muxamadiyeva S.M. | t.f.d., professor, kafedra mudiri | Tojikiston Respublikasi “Sog‘liqni saqlash sohasida diplomdan keyingi ta‘lim instituti” davlat ta‘lim muassasasi, 1-son akusherlik va ginekologiya kafedrasini |

Profilaktika, diagnostika, davolash va rehabilitatsiya usullari (profilaktik, diagnostik, davolash, rehabilitatsiya aralashuvlari) uchun tavsiyalarining ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

| TID | Izoh |
|-----|------|
|-----|------|

| | |
|----------|---|
| A | Kuchli tavsiya (ko‘rib chiqilayotgan barcha samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim hisoblanadi, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega, ularning qiziqtiradigan natijalar bo‘yicha xulosalari o‘zaro muvofiq) |
| B | Shartli tavsiya (ko‘rib chiqilayotgan barcha samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim emas, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega emas va/yoki ularning qiziqarli natijalar bo‘yicha xulosalari o‘zaro muvofiq emas) |
| C | Kuchsiz tavsiya (tegishli sifatdagi dalillarning yo‘qligi (ko‘rib chiqilayotgan barcha samaradorlik mezonlari (natijalar) ahamiyatsiz, barcha tadqiqotlar past metodologik sifatga ega va ularning qiziqtiradigan natijalar bo‘yicha xulosalari o‘zaro muvofiq emas)) |

Atama va ta'riflar

Vulva yirtilishi – homila tug'ilishi vaqtida vulva yumshoq to'qimalari butunligi buzilishi.

Qin yirtilishi – homila tug'ilishi vaqtida qin butunligi buzilishi.

Tug'ruq yo'llari yumshoq to'qimalari gematomasi – yopiq jarohatlanishlarda qon tomiri yirtilishi va qon bilan to'lgan bo'shliq hosil bo'lishi natijasida yuzaga keladigan chegaralangan qon to'planishi.

Oraliq yirtilishi – homila tug'ilishi vaqtida oraliq to'qimalari butunligi buzilishi.

Bachadon bo'yni yirtilishi – homilaning oldinda turgan qismi tug'ruq yo'llari bo'ylab o'tishi vaqtida shikastlanishlar tufayli bachadon bo'yni butunligi buzilishi.

Bachadon ag'darilishi – bachadonning siljishi, bunda u qisman yoki to'liq shilliq qavat bilan tashqariga ag'dariladi.

Bachadonning to'liq yorilishi – bachadonning qorin bo'shlig'iga kirib yirtilishi (miometriy va visseral qorin pardasi shikastlanishi) yoki miometriy butunligi buzilishi, yorilishning siydik qopiga tarqalishi va homila qismlarining onaning qorin bo'shlig'iga chiqib ketishi yoki chiqib ketmasligi holati.

Bachadonning noto'liq yorilishi – miometriy butunligi qorin bo'shlig'iga o'tmasdan, siydik qopi-bachadon burmasi va keng boylam varaqlari hamda qog'anoq parda bo'shlig'i yorilmagan shikastlanishi.

Qov simfizi (birikmasi) – qov suyaklarining o'ng va chap yuqori shoxlari birlashuvi bo'lib, rentgenogrammada 4 mm dan 5 mm gacha normal ajralgan holda ko'rinadi.

Qov birikmasining fiziologik diastazasi – homiladorlik davridagi fiziologik jarayonlar tufayli 2-3 mm ga kengayishi.

Qov birikmasining patologik diastazasi – qov suyaklari yuqori o'ng va chap shoxlarining 10 mm dan ortiq kengayishi.

Qov birikmasi yirtilishi – bog'lam apparati shikastlanishi bilan 25 mm dan ortiq masofaga ajralishi.

Akusherlik travmatizmi – homiladorlik va tug'ruq paytida tug'ruq yo'llari to'qimalarida yuz beradigan shikastlanishlar.

Etiologiyasi va patogenezi

Vulvaning yirtilishiga quyidagilar sabab bo'ladi: to'qimalarning cho'zilish imkoniyatlari cheklanganligi, yirik, gigant va (yoki) muddatidan o'tgan homilaning tug'ilishi, tez va shiddatli tug'ruq, shuningdek tug'ruqning cho'zilib ketishi, homila boshining noto'g'ri joylashishi, tor chanoq, homilaning chanoq bilan kelishi, to'qimalarning tarangligi, biriktiruvchi to'qima displaziyasi, to'qimalardagi chandiqli yoki yallig'lanishli o'zgarishlar, akusherlik operatsiyalarining qo'llanilishi (akusherlik qisqichlari, vakuum-ekstraktorni qo'yish) yoki oraliqni noto'g'ri himoya qilish. Ba'zan yuqorida tasvirlangan travmatik shikastlanishlar normal tug'ruq paytida hech qanday aniq tashqi sababsiz ham yuzaga kelishi mumkin.

Qin yirtilishlari uning devorlari yetarlicha cho'zilmasligi, infantilizm, infeksiyon-yallig'lanish jarayonlari, operativ tug'ruqlar, bosh qismining noto'g'ri joylashishi, homila boshining kattaligi va tug'ruqlar cho'zilishi natijasida yuzaga keladi. Homila vazni ortishi bilan tug'ruq jarohatlanishlari ehtimoli ham ortib boradi. Odatda, yirtilishlar qinning pastki qismida, ko'pincha oraliq yirtilishi bilan bir vaqtda yuzaga keladi. Qinning o'rta qismi kamroq fiksatsiyalangan va ko'proq cho'ziluvchan bo'lgani uchun kamdan-kam hollarda shikastlanadi. Tug'ruq paytida qinning bu qismining shikastlanishi devorning anatomik xususiyatlari (chandiqli o'zgarishlar, infantilizm va boshqalar) yoki akusherlik amaliyotlari (qisqich qo'yish, vakuum-ekstraksiya) tufayli yuz berishi mumkin. Qin gumbazlarining uzilishi o'z-o'zidan yoki ko'pincha akusherlik aralashuvlari oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

To'qimalar yetarlicha elastik bo'lmaganda yoki homila boshining bosimi ostida tez cho'zilganda, oraliq yupqalashadi va bu uning yirtilishiga olib kelishi mumkin. Oraliq yirtilishining asosiy sabablariga quyidagilar kiradi: oraliq va tashqi jinsiy a'zolar sohasidagi oldingi o'zgarishlar (infantilizm yoki oldingi yirtilishlardan keyin chandiqli o'zgarishlar tufayli to'qimalarning qattiqlashishi natijasida), homila boshining vulvar halqa orqali tez o'tishi, homilani tezda chiqarib olishni ko'zda tutuvchi akusherlik operatsiyalari, shuningdek homila boshining katta o'lchamda vulvar halqa orqali o'tishi.

Tug'ruq paytida qon tomirlari yorilib, tashqi jinsiy a'zolar to'qimasiga yoki qin shilliq qavati ostiga qon quyilishi mumkin. Gematomalar paydo bo'lishiga, odatda, tomir devorlarining o'zgarishi (tomirlarning mo'rtligi oshishi, varikoz kasalligi), tug'ruqning tez kechishi, homila boshi bilan to'qimalarning ezilishi, shuningdek, akusherlik amaliyotlari (akusherlik qisqichlari va boshqalar) sabab bo'ladi. Bundan tashqari, paratservikal yoki pudental og'riqsizlantirish paytida ham shikastlanish yuz berishi mumkin. Oraliq kesmasi chetida yoki yirtilishlar atrofida ham gematomalar hosil bo'lishi mumkin.

Bachadon bo'yni yirtilishiga uning qattiqligi, bachadon og'zi chetlarining haddan tashqari cho'zilishi (yirik homila, homila boshining yozilgan holatda kelishi), tez va shiddatli tug'ruq, klinik tor chanoqda bachadon bo'yni chetlarining uzoq vaqt siqilishi, bachadon bo'ynining chandiqli deformatsiyasi, operativ tug'ruq sabab bo'ladi. Yirtilishlar odatda bachadon bo'ynining yon tomonlarida, ko'pincha chap tomonda sodir bo'ladi. Yirtilishlar ko'pincha homila boshi bukilgan holatda tepa va ensa do'mboqlari, yozilgan holatda esa peshona do'mboqlari joylashgan tomonda kuzatiladi.

Bachadon yorilishiga quyidagi sabablar olib kelishi mumkin: tor chanoq, yirik homila, homilaning noto'g'ri joylashishi (ko'ndalang, qiyshiq) yoki boshining noto'g'ri kelishi (peshona, yuz bilan), gidrotsefaliya, tug'ruq yo'llaridagi o'smalar (bachadon miomasi) tufayli bachadonning pastki qismining haddan tashqari cho'zilishi; tug'ruq cho'zilishi; oldingi jarrohlik amaliyotlaridan keyin bachadonda paydo bo'lgan chandiqlar (bachadon teshilishi, miomatoz tugunlarni olib tashlash, kesarcha, ayniqsa korporal kesarcha kesish). Homiladorlik davrida bachadon yorilishi xavfi yuqori bo'lgan ayollar guruhiga quyidagilar kiradi: kesarcha kesishdan so'ng bachadonda chandig'i borlar, miomatoz tugunlarni olib tashlash va uning asosini tikishdan keyingilar, endoskopik aralashuvdan so'ng tugunlarni olib tashlash va uning asosini koagulyatsiya qilishdan keyingilar, bachadon teshilishidan so'ng devorini tikishdan keyingilar, intramural naysimon homiladorlik sababli nayni olib tashlashdan keyingilar; ko'p marta abort qilganlar, ayniqsa bachadon yallig'lanishi bilan asoratlanganlar; ko'p tuqqan ayollar. Tug'ruq paytida bachadon yirtilishi xavfi yuqori bo'lgan homiladorlar guruhiga quyidagilar kiradi: yuqorida sanab o'tilganlar; yirik yoki juda katta homilasi borlar; homilaning patologik joylashishi (ko'ndalang, qiyshiq) bo'lganlar; anatomik tor chanoq; diatermokoagulyatsiya, kriodestruksiya, plastik operatsiyalardan keyin chandiqlar tufayli bachadon bo'ynida anatomik o'zgarishlar bo'lganlar; kichik chanoqdan chiqishni to'sib qo'yadigan bachadon o'smalari borlar.

Bachadon yorilishi bir vaqtning o'zida bachadonda patologik jarayonlar va homilani tug'ishda qiyinchiliklar mavjud bo'lganda yuzaga keladi. Bachadon devoridagi patologik o'zgarishlar moyillik tug'diruvchi, mexanik o'zgarishlar esa bevosita ta'sir qiluvchi omillardir. Homilani tug'ish uchun to'siqlar mavjud bo'lganda, kuchli tug'ruq faoliyati rivojlanadi, bachadonning yuqori qismi tobora ko'proq qisqaradi, homila asta-sekin yupqa devorli, cho'zilgan bachadonning pastki qismiga siljiydi. Tug'ruq faoliyati davom etganda pastki qismning haddan tashqari cho'zilishi va yupqalashishi eng yuqori chegaraga yetadi va u yoriladi.

Tug'ruqning uchinchi bosqichini olib borish bilan bachadonning ag'darilib qolishi o'rtasidagi bog'liqlik isbotlanmagan, biroq biriktiruvchi to'qima displaziyasi, bachadon gipotoniyasi va unga mexanik bosim xavf omillari bo'lishi mumkin.

Homiladorlik davrida chanoq bo‘g‘imlarining bir oz yumshashi kuzatiladi, shu sababli homila boshining chanoq suyak halqasiga bosimi qov suyaklarining ajralishiga olib kelishi mumkin. Bu ko‘pincha tor chanoqli ayollarda yoki yirik homila o‘z-o‘zidan tug‘ilganda sodir bo‘ladi. Patologik tug‘ruq va jarrohlik aralashuvlarida (akusherlik qisqichlarini qo‘llash, homilani chanoq uchidan chiqarish, homilani parchalovchi operatsiyalar), ayniqsa tor chanoqli ayollarda, qov birikmasining sezilarli darajada ajralishi va yirtilishi mumkin. Ba‘zan qov birikmasi yirtilganda bir vaqtning o‘zida qovuq va siydik yo‘li ham shikastlanadi.

Epidemiologiyasi

Tug‘ruq paytida onaning tug‘ruq yo‘llari sezilarli darajada cho‘ziladi, natijada ular shikastlanishi mumkin. Bemorning xususiyatlari va tug‘ruqni olib borish sharoitlariga qarab yirtilishlar chastotasi farq qilsa-da, tabiiy tug‘ruq yo‘llari orqali tug‘ayotgan ayollarning 53 foizidan 79 foizigacha qandaydir turdagi yirtilishni boshdan kechiradi.

Hozirgi vaqtda oraliq yirtilishlari soni 10-12 foizni tashkil etadi. Oraliq yirtilishining oldini olish uchun muntazam epiziotomiya tavsiya etilmaydi. Muntazam epiziotomiyadan foydalanishni cheklash uchinchi va to‘rtinchi darajali yirtilishlarni kamaytiradi. Epiziotomiya oraliq yirtilishi og‘irligini, chanoq tubi a‘zolari disfunktsiyasi yoki chanoq a‘zolari prolapsini oldini olishda qisqa va uzoq muddatli foyda bermaydi.

Epiziotomiya o‘tkazilmaganlarga nisbatan, epiziotomiya qilingan ayollarda tug‘ruqdan keyingi ahlatni tuta olmaslik xavfi yuqoriroq bo‘ladi.

Bachadon bo‘ynining yirtilishi tug‘ruqlarning 6-15 foizida uchraydi.

Umumiy populyatsiyada bachadon yorilishining chastotasi taxminan 0,02% ni tashkil etadi. Bachadon yorilishi tug‘ruqlar umumiy sonining 0,05-0,1% ni tashkil qilib, ko‘p tuqqan ayollarda ko‘proq uchraydi. Homiladorlik davrida bachadon yorilishi tug‘ruqqa nisbatan ancha kam ro‘y berib, barcha bachadon yorilishlarining 9,1% ini tashkil etadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda bachadon yorilishi chastotasi o‘rtacha 0,053-0,07% yoki 10 000 ta tug‘ruqqa 5,3-7 ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda ancha past: Avstraliyada – 8,6, Kanadada – 3, Irlandiyada – 2,3, Singapurda – 1,6, AQSHda – 10 000 ta tug‘ruqqa 0,67-1,3 ni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda: Nigeriya, Efiopiya, Pokiston, Yamanda – 10 000 ta tug‘ruqqa 50-263 ni tashkil etadi.

XKT-10/XKT-11 bo‘yicha kodlanishi

| XKT-10 kodi | XKT-11 kodi | Nozologik birligi |
|--------------|--------------------|---|
| O70 | JB0B–JB0B.Z | Tug‘ruq paytida oraliq yirtilishi |
| O70.0 | JB0B.0 | Tug‘ruq paytida oraliqning birinchi darajali yirtilishi |
| O70.1 | JB0B.1 | Tug‘ruq paytida oraliqning ikkinchi darajali yirtilishi |
| O70.2 | JB0B.2 | Tug‘ruq paytida oraliqning uchinchi darajali yirtilishi |
| O70.3 | JB0B.3 | Tug‘ruq paytida oraliqning to‘rtinchi darajali yirtilishi |
| O70.9 | JB0B.Z | Boshqa joyda tasniflanmagan tug‘ruq paytida oraliq yirtilishi |
| O71 | JB0C–JB0C.Z | Boshqa akusherlik jarohatlari |
| O71.0 | JB0C.0 | Tug‘ruqdan oldin bachadon yorilishi |
| O71.1 | JB0C.1 | Tug‘ruq paytida bachadon yorilishi |
| O71.2 | JB0C.2 | Tug‘ruqdan keyingi bachadon ag‘darilishi |
| O71.3 | JB0C.3 | Bachadon bo‘ynining akusherlik yirtilishi |
| O71.4 | JB0C.4 | Faqat qinning yuqori qismidagi akusherlik yirtilishi |
| O71.5 | JB0C.Y | Chanoq a‘zolarining boshqa akusherlik jarohatlari |
| O71.6 | JB0C.5 | Chanoq bo‘g‘imlari va boylamlarining akusherlik jarohatlari |

| XKT-10 kodi | XKT-11 kodi | Nozologik birligi |
|--------------|---------------|---|
| O71.7 | JB0C.6 | Chanoqning akusherlik gematomasi |
| O71.8 | JB0C.Y | Boshqa aniqlangan akusherlik jarohatlari |
| O71.9 | JB0C.Z | Boshqa ruknada tasniflanmagan akusherlik jarohati |
| O26.7 | JA63.0 | Homiladorlik, tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi davrda qov birikmasining chala chiqishi |

Tasnifi

Bachadonning tug‘ruq jarohatlari o‘z-o‘zidan va akusherlik aralashuvlari natijasida yuzaga keladigan majburiy jarohatlarga bo‘linadi. Ular mexanik (to‘qimalarning haddan tashqari cho‘zilishi bilan bog‘liq), morfologik (to‘qimalardagi gistokimyoviy o‘zgarishlar tufayli) va aralash (mexanik-gistopatologik) turlarga ajratiladi.

Onaning tug‘ruq jarohatlari turlari: vulvaning yirtilishi, qinning yirtilishi, tug‘ruq yo‘llari yumshoq to‘qimalarining gematomasi, oraliqning yirtilishi, bachadon bo‘ynining yirtilishi, bachadonning yorilishi, bachadonning ag‘darilishi, qov birikmasining shikastlanishi.

I. Vulva yirtilishlarining tasnifi:

1.1. Hajmi bo‘yicha:

- yuzaki;
- chuqur.

1.2. Joylashishi bo‘yicha:

- kichik jinsiy lablar yirtilishi;
- qin dahlizi sohasidagi yirtilish;
- klitor sohasidagi yirtilish;
- katta jinsiy lablarning yirtilishi.

II. Qin yirtilishlarining tasnifi:

2.1. Hajmi bo‘yicha:

- yuzaki;
- chuqur.

2.2. Joylashishi bo‘yicha:

- qinning yuqori uchdan bir qismidagi yirtilishlar;
- qinning o‘rta uchdan bir qismidagi yirtilishlar;
- qinning pastki uchdan bir qismidagi yirtilishlar.

III. Tug‘ruq yo‘llari yumshoq to‘qimalari gematomalari tasnifi:

3.1. Joylashishi bo‘yicha:

- katta jinsiy lablar sohasida;
- oraliq sohasida;
- qin devori sohasida;
- qin atrofi kletchatkasi sohasida;
- dumba mushaklari sohasida.

Joylashishiga ko‘ra gematomalar orqa chiqaruv teshigini ko‘taruvchi mushakdan yuqorida yoki pastda joylashgan turlarga bo‘linadi.

IV. Oraliq yirtilishlari:

4.1. Shikastlanish darajasi bo'yicha:

- I darajali yirtilish – faqat teri shikastlanishi;
- II darajali yirtilish – oraliqning shikastlanishi bo'lib, mushaklar shikastlanishini o'z ichiga oladi, ammo orqa teshik sfinkteri shikastlanishini o'z ichiga olmaydi;
- III darajali yirtilish – oraliqning shikastlanishi bo'lib, orqa teshik sfinkteri kompleksining shikastlanishini o'z ichiga oladi:
 - IIIa – tashqi orqa teshik sfinkterining 50% dan kamroq qismi.
 - IIIb – tashqi orqa teshik sfinkterining 50% dan ko'proq qismi.
 - IIIc – tashqi va ichki orqa teshik sfinkterining shikastlanishi.
- IV darajali yirtilish – oraliqning shikastlanishi bo'lib, orqa teshik sfinkteri kompleksi (tashqi va ichki) va to'g'ri ichak shilliq qavatining shikastlanishini o'z ichiga oladi.

V. Bachadon bo'yni yirtilishlari:

- I daraja – bachadon bo'ynining bir yoki ikki tomondan 2 sm dan oshmaydigan uzunlikdagi yirtilishi.
- II daraja – bachadon bo'ynining bir yoki ikki tomondan 2 sm dan ortiq, lekin qin gumbaziga 1 sm yetmagan uzunlikdagi yirtilishi.
- III daraja – bachadon bo'ynining bir yoki ikki tomondan qin gumbazigacha yetib borgan yoki unga o'tgan yirtilishi.

VI. Bachadon yorilishlari:

6.1. Etiologiyasi va patogeneziga ko'ra:

- o'z-o'zidan (tashqi ta'sirlarsiz yuzaga keladi):
 - mexanik;
 - gistopatik;
 - aralash.
- zo'raki (noto'g'ri qo'llanilgan aralashuvlar yoki jarohatlar tufayli):
 - travmatik;
 - aralash.

6.2. Joylashishiga ko'ra:

- bachadon tubida;
- bachadon tanasida;
- bachadonning pastki segmentida;
- bachadonning qin gumbazlaridan ajralishi.

6.3. Shikastlanish xususiyatiga ko'ra:

- to'liq yorilishi;
- qisman yorilishi.

VII. Bachadonning ag'darilishi:

7.1. Qisman (faqat bachadon tanasi yoki uning yuqori uchdan bir qismining ag'darilishi);

7.2. To'liq (bachadon butunlay tashqariga ag'darilgan holda).

Bachadonning zo'raki yirtilishi patogenezini jihatidan o'z-o'zidan yirtilishidan farq qiladi. Zo'raki yorilishlarga tashqi jarohatlar natijasida yuzaga kelgan travmatik yorilishlar va akusherlik amaliyotlarini tegishli qoidalarga rioya qilmasdan o'tkazish oqibatida kelib chiqqan yatrogenik yorilishlar kiradi: masalan, akusherlik qisqichlarini kichik chanoq bo'shlig'ining tor qismidan yuqorida joylashgan bola boshiga qo'yish yoki homilani vakuum-ekstraksiya qilish paytida.

Klinik ko‘rinishi

Ko‘rikda tug‘ruq yo‘llari yumshoq to‘qimalarining butunligi qon ketishi bilan yoki qon ketishsiz buzilganligi aniqlanadi. Tug‘ruqdan keyin darhol qon ketishi qin yirtilishining belgisi bo‘lishi mumkin.

Gematoma qinda joylashganda, ko‘p miqdorda qon yig‘ilishi tufayli uning bo‘shlig‘iga bo‘rtib chiqadi va fluktuatsiyalanadi. Qon ko‘p to‘planganda to‘qimalar taranglashadi va og‘riq paydo bo‘ladi. Og‘riq, to‘g‘ri ichak yoki siydik qopiga bosim hissi, tenezm kabi klinik belgilar kuzatiladi. Kichik o‘lchamdagi gematomalar qo‘shni a‘zolar faoliyatining buzilishiga olib kelmaydi.

Chanoq jarohatlari tug‘ruqdan keyingi davrning dastlabki 3 kunida qov birikmasi, dumg‘aza, dum suyagi sohasida og‘riqlarga sabab bo‘ladi. Bu og‘riqlar oyoqlarni ochish va yurish paytida kuchayadi. Yurish tarzi o‘zgaradi.

Oraliq yirtilishining asosiy klinik belgisi bola tug‘ilishi bilanoq qon ajralishidir. Klinik jihatdan oraliq yirtilishining kam uchraydigan turi – markaziy yirtilish ajratiladi. Bunda orqa bitishma va tashqi orqa teshik sfinkteri buzilmaydi, faqat ular orasidagi oraliq to‘qimalari yirtiladi. Bunday shikastlanishda yirtilish har doim ham to‘liq bo‘lmaydi – qin to‘qimasi va chuqur joylashgan to‘qimalar yirtiladi, ammo teri shikastlanmaydi. Ba‘zan yorilish teridan boshlanib, chuqur to‘qimalarga o‘tadi, lekin qin shilliq qavatigacha yetib bormaydi.

Bachadon bo‘ynining 0,5-1,0 sm uzunlikdagi yuzaki yirtilishlari odatda belgilsiz kechadi. Chuqurroq yirtilishlar esa turli darajadagi qon ketishi bilan namoyon bo‘ladi. Bachadon arteriyasining pastga tushuvchi bo‘yin tarmog‘i shikastlanganda qon ko‘p ketadi va bu bola tug‘ilishi bilanoq boshlanadi. Qon yorqin qizil oqim bo‘lib oqadi, yo‘ldosh ajralgandan keyin ham, bachadon yaxshi qisqarganida ham davom etadi.

Bachadon ag‘darilishining xos belgilari: qorin pastida to‘satdan kuchli og‘riqlar, shok alomatlar va bachadondan qon ketishi. Jinsiy yoriqdan ag‘darilgan bachadon chiqadi. Qov ustini paypaslaganda bachadonning odatdagi joyida voronkasimon bo‘shliq seziladi. Qon ketishi bachadon ag‘darilishidan oldin, uning bo‘shashganligi tufayli boshlanishi va ag‘darilish tugagandan keyin ham davom etishi mumkin.

Bachadonning mexanik yirtilishi xavfi tug‘ilganda, ko‘rik va obyektiv tekshiruv paytida shiddatli tug‘ruq faoliyati kuzatiladi. To‘lg‘oqlar o‘ta og‘riqli bo‘lib, ba‘zan tutqanoq xususiyatini oladi. To‘lg‘oqlar orasida bachadon yetarlicha bo‘shashmaydi, tubi o‘rta chiziqdan oqqan holda uzunasiga cho‘ziladi. Bachadonning pastki qismi keskin cho‘zilgan va yupqalashgan bo‘ladi. Retraksiya (chegara) halqasi yuqoriga ko‘tarilib, kindik darajasigacha yetadi va qiyshiq joylashadi (bachadon “qum soat” shaklini oladi). Homila ahvoli yomonlashib, distress belgilari paydo bo‘ladi. Ayolning o‘z-o‘zidan siydik chiqarishi qiyinlashadi. Qin orqali tekshirilganda bachadon bo‘yni chetlari shishgan holda aniqlanadi.

Bachadon yirtilishi xavfi belgilari pastki bachadon qismining haddan tashqari cho‘zilishi bilan namoyon bo‘ladi:

- Agar epidural og‘riqsizlantirish qilinmagan bo‘lsa, og‘riqli to‘lg‘oqlar va siydik chiqarishning qiyinlashuvi kuzatiladi;
- Obyektiv belgilar: kontraksiya halqasining baland va qiyshiq joylashuvi, dumaloq boylamlarning balandlik bo‘yicha nosimmetrik joylashuvi, qov ustida paypaslab aniqlanadigan haddan tashqari cho‘zilgan siydik qopi;
- Qin orqali tekshirilganda bachadon bo‘yni chetlari shishgan, bachadon og‘zi to‘liq yoki deyarli to‘liq ochilgan, homila boshida sezilarli tug‘ruq shishi kuzatiladi.

Bachadon yirtilishi boshlanishining belgilari bachadon devori butunligining buzilishi va unda gematoma hosil bo'lishi bilan bog'liq. Bu yorilish alomatlari normal joylashgan yo'ldosh ko'chishidagi belgilarga o'xshaydi (bachadon gipertonusi, homila yurak faoliyatining buzilishi, jinsiy yo'llardan qon kelishi). Homila boshining sezilarli tug'ruq shishi dumg'aza va chanoq diafragmasiga bosim berishi natijasida to'lg'oqlar "kuchli" xususiyat kasb etadi. Bachadon yorila boshlaganda qon jinsiy yo'llardan kelmasligi mumkin (majburiy bo'lmagan belgi), ammo uning paydo bo'lishi doimo bachadon yirtilishi boshlanganidan darak beradi. Bachadon yirtilishi boshlanishida xavfli yorilish alomatlariga og'riqli shok belgilari va tashqi qon ketishi qo'shiladi, siydikda qon paydo bo'lishi mumkin. Homilada taxikardiya yoki bradikardiya kuzatiladi, harakat faolligi ortadi, qog'onoq suvida mekoniy paydo bo'ladi.

Bachadon yorilganda, odatda, tug'ayotgan ayolning qornida kuchli sanchiq paydo bo'ladi, tug'ruq faoliyati to'xtaydi; shok alomatlari kuzatiladi. Bachadon yorilganda homila to'liq yoki qisman qorin bo'shlig'iga chiqadi, paypaslab ko'rilganda homila qismlari bevosita qorin devori ostida aniq seziladi. Tashqi qon ketishi odatda oz bo'ladi, qon qorin bo'shlig'iga quyiladi. Homilaning ona qornida nobud bo'lishi mumkin.

Bachadonning teshib o'tgan yirtilishini aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi:

- tug'ruq faoliyati to'xtaydi, "sukunat" boshlanadi;
- barcha tug'uvchi ayollarda u yoki bu darajada gemorragik shok bilan birgalikda og'riq shoki belgilari paydo bo'ladi;
- homila gipoksiyasi belgilari (ko'pincha bradikardiya) homila o'limigacha yetib boradi.

Yorilish chuqur bo'lmasa, gematoma yo plica vesico-uterina ostida, yoki bachadonning keng boylami qatlamlari orasida hosil bo'ladi. Bachadonning chuqur bo'lmagan yirtilishining klinik belgilari quyidagilardir:

- tug'ruqning III bosqichida va/yoki tug'ruqdan keyingi erta davrda qorinning pastki qismida og'riq sezish;
- umumiy ahvolning yomonlashuvi: holsizlik, bosh aylanishi, yurak urishi tezlashuvi, qon bosimining pasayishi;
- jinsiy yo'llardan qon ketishi;
- paypaslab ko'rish va/yoki ultratovush tekshiruvi yordamida tashxisni tasdiqlash mumkin.

Operatsiya qilingan bachadonning yirtilishi dunyoning ko'plab mamlakatlarida yetakchi o'ringa chiqmoqda. Rossiya, Yevropa, AQSHda ayollarning 30% dan ortig'ida amalga oshiriladigan kesarcha kesish operatsiyasi sonining hamma joyda izchil o'sishi bilan chandiq bo'ylab bachadon yirtilishi chastotasining oshishi o'rtasida bevosita bog'liqlik aniq ko'rinadi. Xitoy va Janubiy Amerikaning ba'zi mamlakatlarida bu ko'rsatkich 50-70% ga yetadi. Bachadonning gistopatik yirtilishi aniq belgilarning yo'qligi, "yashirin" kechishi bilan ajralib turadi.

Homiladorlik davrida bachadonning chandiq bo'ylab gistopatik yirtilishi belgilari:

- Homiladorlik paytida chandiq bo'ylab bachadonning xavfli yirtilishi ko'ngil aynishi, qusish, qorinning yuqori va pastki qismlarida og'riq kabi shikoyatlar bilan tavsiflanadi.
- Bachadon devorining chandiq bo'ylab yirtilishi boshlanishi gematoma hosil bo'lishi bilan kechadi, bu esa bachadon gipertonusiga va homila gipoksiyasiga (bradikardiya) olib keladi. Qonli ajralmalar kuzatilishi mumkin, bu bachadon yirtilishi boshlanganligini 100% tasdiqlaydi. Xarakterli simptom sifatida aniq joylashuvi bo'lmagan qorin sohasidagi, shuningdek, chandiq atrofidagi og'riqlar namoyon bo'ladi.
- Bachadon yirtilishining belgilari chandiqning joylashuvi va bachadon butunligining buzilish xususiyatiga bog'liq: teshib o'tuvchi va teshib o'tmaydigan, klinik ko'rinishi mexanik yorilishlardagidan farq qilmaydi.

Tugʻruq paytida bachadonning chandiq boʻylab yorilish xavfi belgilari homiladorlik davridagi belgilarga oʻxshash boʻlib, koʻngil aynishi, qusish, qorin va chandiq sohasida ogʻriq paydo boʻlishidan iborat. Chandiq boʻylab bachadon yirtilishi xavfining oʻziga xos belgisi tugʻruq faoliyatining sustligi yoki muvofiqsizligi hisoblanadi.

Tugʻruq paytida chandiq boʻylab bachadon yirtilishi boshlanganda qorindagi ogʻriqlar kuchayadi, bachadon gipertonusga uchraydi, bu esa yoʻldosh qon aylanishining buzilishiga, homilaning bradikardiya koʻrinishidagi gipoksiyasiga olib keladi. Homiladorlik va tugʻruq paytida bachadonning chandiq boʻylab yirtilishi toʻliq (teshib oʻtuvchi) yoki qisman (teshib oʻtmaydigan) boʻlishi mumkin.

Bachadonning chandiq boʻylab toʻliq boʻlmagan yirtilishi qovuq-bachadon burmasi ostida yoki keng bachadon burmasi qatlamlari orasida gematoma hosil boʻlishi bilan tavsiflanadi.

Agar bu homiladorlik paytida sodir boʻlsa, bachadon gipertonusi va homila gipoksiyasi fonida qorinda, chandiq sohasida ogʻriqlar paydo boʻladi. Tugʻruq vaqtida yuqorida aytilgan simptomlarga tugʻruq faoliyatining toʻxtashi qoʻshiladi. Gematomaning hajmi va uning tez oʻsishi simptomlarning ifodalanish darajasini belgilaydi: holsizlik, qorinning pastki qismida ogʻriq, terining oqarishi, qon bosimining pasayishi. Teshib oʻtuvchi yorilishda klinik manzaraning ifodalanishi qon yoʻqotish miqdoriga bogʻliq boʻladi.

Chandiq/anevrizmaning yoyilishi oʻziga xos koʻrinishga ega: chandiqning ajralishi va homila qismlarining yarim shaffof boʻrtib chiqishi kuzatiladi. Chandiq/anevrizmaning yoyilishi homiladorlikning 17-haftasidan boshlab aniqlanishi mumkin. Bunda homiladorlik davom ettiriladi. Ushbu patologiyaning prenatal diagnostikasi uchun ultratovush tekshiruv maʼlumotlariga koʻra, taxmin qilingan chandiq sohasidagi pastki bachadon segmentining qalinligi 1 mm dan kam boʻlishi asos hisoblanadi.

Tugʻruqdan keyingi davrda aniqlanadigan bachadon yirtilishi belgilari: jinsiy yoʻllardan qon ketishi, qorinning barcha qismlarida kuchli ogʻriq, bachadonni paypaslaganda kuchli ogʻriqlar, baʼzida yoʻldoshning ajralmasligi, qorin dam boʻlishi mumkin, koʻngil aynishi, qusish, bachadon tubining aniq konturlanmasligi (bachadon tubining “yopiq” belgisi), bachadon qovurgʻasi boʻylab ogʻriqli hosila (gematoma) paypaslash, gipertermiya, gemorragik va ogʻriqli shok belgilarining paydo boʻlishi.

Diagnostikasi

Tashqi jinsiy aʼzolari koʻzdan kechirish orqali vulvaning yorilishini aniqlash mumkin.

Qin va bachadon boʻyni yorilishini aniqlash chilla davri tugagandan soʻng tugʻruq yoʻllarini koʻzguda koʻrib tekshirishga asoslanadi. Koʻzdan kechirilganda tugʻruq yoʻllari yumshoq toʻqimalarining butunligi qon ketishi bilan yoki qon ketishsiz buzilganligi aniqlanadi.

